XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



2023-yil

## 2023- yilning yanvar-fevral oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



**Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyatida jami 406,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 74,7 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.




***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlari hajmi bu — o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida jami qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **25,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **1,9 marta ko'p** bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,8 marta** ko'paydi va **6,2 %** ni tashkil etdi**.**



**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da**




**O'SISH SUR'ATI 74,7 %**

2022- yil yanvar-fevral

2023- yil yanvar-fevral

***Ma'lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **47,0** % yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,2** marta **)**, Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,6** % yoki 2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **37,6** marta**)** va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,5 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,1** marta) hissasiga to'g'ri keldi.*

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-fevral oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,1 % i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning yanvar-fevral oyidagi ko‘rsatkichiga nisbatan 10,6 % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 62,9 %ni tashkil etgan holda 240,3 mlrd. so‘m miqdorida bajarildi.



## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi %da






*Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Xiva tumaniga (22,3 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 9,3 %) va Urganch shahriga (72,6 mlrd. so‘m yoki 30,2 %) to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **25,5** mlrd. so‘mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **381,0** mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,3 %** va **93,7 %** ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





## 2023- yilning yanvar-fevral oyida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| **Xorazm viloyati** | **406,6** | **25,5** | **6,3** | **381,0** | **93,7** |
| **Urganch sh.** | 105,9 | 5,9 | 5,5 | 100 | 94,5 |
| **Xiva sh.** | 25,3 | 2,3 | 9,0 | 23 | 91,0 |
| **tumanlar:** | | | | | |
| **Bog‘ot** | 21,9 | 0 | 0 | 21,9 | 100,0 |
| **Gurlan** | 15,3 | 2,4 | 15,4 | 12,9 | 84,6 |
| **Qo‘shko‘pir** | 30,9 | 2,3 | 7,5 | 28,6 | 92,5 |
| **Urganch** | 29,7 | 0 | 0 | 29,7 | 100,0 |
| **Hazorasp** | 26,8 | 2,2 | 8,3 | 24,6 | 91,7 |
| **Tuproqqal’a** | 12,8 | 2,7 | 21,2 | 10,1 | 78,8 |
| **Xonqa** | 32,2 | 1,7 | 5,4 | 30,5 | 94,6 |
| **Xiva** | 34,8 | 0 | 0 | 34,8 | 100,0 |
| **Shovot** | 28,5 | 2,5 | 8,7 | 26 | 91,3 |
| **Yangiariq** | 20,1 | 2,3 | 11,5 | 17,8 | 88,5 |
| **Yangibozor** | 22,4 | 1,2 | 5,5 | 21,2 | 94,5 |

# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-fevral oyi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **76,6** % yoki **311,5** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **6,6** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **85,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **157,2** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **65,4** % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **133,7** mlrd. so‘mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **94,7** % ni tashkil etdi.



# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

*ulushi, % da*




***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral

| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashti-rilgan qurilish ishlari |
| **Xorazm viloyati** | **406,6** | **276,8** | **108,7** | **21,1** |
| **Urganch sh.** | 105,9 | **63,1** | **37,1** | **5,7** |
| **Xiva sh.** | 25,3 | 12,0 | 13,1 | 0,2 |
| **tumanlar:** | | | | |
| **Bog‘ot** | 21,9 | 16,3 | 4,6 | 1,0 |
| **Gurlan** | 15,3 | 9,2 | 2,4 | 3,7 |
| **Qo‘shko‘pir** | 30,9 | 23,6 | 6,9 | 0,4 |
| **Urganch** | 29,7 | 16,4 | 9,1 | 4,2 |
| **Hazorasp** | 26,8 | 22,3 | 3,7 | 0,8 |
| **Tuproqqal’a** | 12,8 | 8,3 | 4,1 | 0,4 |
| **Xonqa** | 32,2 | 25,5 | 5,3 | 1,4 |
| **Xiva** | 34,8 | 23,6 | 9,9 | 1,3 |
| **Shovot** | 28,5 | 24,7 | 2,7 | 1,1 |
| **Yangiariq** | 20,1 | 16,6 | 3,2 | 0,3 |
| **Yangibozor** | 22,4 | 15,2 | 6,6 | 0,6 |

# 2023- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimidagi qurilish ishlari

*Mlrd. so‘m*

**Urganch sh.**
**105,9**

**Xiva**
**34,8**

**Xonqa**
**32,2**

**Qo‘shko‘pir**
**30,8**



***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Urganch shahri (105,9 mlrd. so‘m), Xiva (34,8 mlrd. so‘m), Xonqa (32,2 mlrd so‘m) hamda Qo‘shko‘pir tumanlariga (30,8 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keladi.*

**Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo‘limi**

**Aloqa telefoni: (62)*224-65-22***